
Maktabga FNQIZ homiyligida kutubxona, oshxona hamda faollar zali qurib berildi

34-maktab shahrimizdagi "Mustaqillik" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan. 352 nafar o'quvchi tahsil oladi, 33 nafar pedagoglar faoliyat olib boradi.

Joriy yilda o'qituvchi va o'quvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida FNQIZ tomonidan homiylik mablag'lari hisobiga kutubxona, faollar zali va oshxona qurib bitkazildi.

Maktabdagi Zulfiyaxon Bobojonova rahbarligidagi kutubxona bugun o'quvchilar bilan gavjum. 2 mingga yaqin badiiy adabiyotlar bo'lgan kutubxona faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Farg'ona shahar bo'linmasi rahbari Azizbek Soyibnazarov maktab kutubxonasi bilan yaqindan tanishdi. O'quvchilar bilan kitob mutolaasi yuzasidan suhbatlashdi. Tadbir davomida maktab kutubxonasi uchun sara badiiy adabiyotlar sovg'a qilindi.

2022-05-11 17:14:32